



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Temir Olimov<sup>1</sup>

<sup>1</sup>Buxoro viloyat XTXQT va MOHM o‘qituvchisi, E-mail: temur\_olimov@mail.ru  
Telefon: 97. 292 36 00

BO’LAJAK OLIY MA’LUMOTLI MUTAXASISLARDA FUQAROLIK MADANIYATINI  
SHAKLLANTIRISHNING AYRIM YO’NALISHLARI

НЕКОТОРЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ГРАЖДАНСКОЙ КУЛЬТУРЫ  
БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ С ВЫСШИМ ОБРАЗОВАНИЕМ

SOME DIRECTIONS OF FORMATION OF CIVIL CULTURE IN FUTURE SPECIALISTS  
WITH HIGHER EDUCATION



### *Annotasiya*

Ushbu maqolada bo'lajak oliv ma'lumotli mutaxasislarda fuqarolik madaniyatini shakllantirishning ma'naviy-axloqiy jihatlari aholi turmush tarzini farovonligini oshirish, fuqarolarning siyosiy va huquqiy madaniyati va saviyasini yuqori darajaga ko'tarish, ularda fuqarolik madaniyatini shakllantirish yo'nalishlari haqida so'z boradi.

**Tayanch so'zlar:** ta'lim islohoti, modernizatsiya, oliv ma'lumot, fuqarolik madaniyati, ma'naviyat, ma'rifat, mutaxassis, siyosiy, huquqiy madaniyati, pedagogika va psixologiya, yo'nalish.

### *Аннотация*

В статье рассматриваются вопросы формирования гражданской культуры будущих специалистов с высшим образованием и повышения у них политической, правовой культуры.

**Ключевые слова:** реформа образования, модернизация, высшее образование, гражданская культура, духовность, просвещение, эксперт, политическая, правовая культура, педагогика и психология, направление.

### *Annotation*

*The article dedicatedto the spiritual-ethical features of the formation of civic culture in the future graduate specialists and increasing the life style welfare of the people, raisng the political and juridical culture of the people and forming civic culture in them.*

**Keywords:** education reform, modernization, higher education, civic culture, spirituality, enlightenment, expert, political, legal culture, pedagogy and psychology, direction.

### **Kirish**

O'zbekiston Respublikasida mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilgan islohotlarning tub mohiyati aholi turmush tarzining farovonligini oshirish, fuqarolarning siyosiy va huquqiy madaniyati va saviyasini yuqori darajaga ko'tarish, ularda aniq fuqarolik madaniyatini shakllantirishda o'z ifodasini topadi. Davlatning taraqqiy etishida va undagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy munosabatlarning yangi bosqichga o'tishida mamlakat oldida turgan vazifalarni turli yo'nalishlarga taqsimlagan holda, fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim sharti, yoshlarninig ma'naviy-axloqiy barkamolligi bilan belgilanadi. Prezidentimiz Sh. Mirziyoev takidlaganlaridek, "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha oldimizda ulkan va muhim vazifalar turganini, o'ylaymanki, barchamiz yaxshi tushunamiz" [1, 123]. Demak, fuqarolik jamiyatini qaror toptirish uchun davlat o'zining ayrim vazifalarini bo'ynidan soqit qilib, asta-sekin jamiyatning boshqa institutlariga topshirmog'i lozim. Buning uchun esa davlat tomonidan muayyan shart-sharoitlar, imkoniyatlar yaratilib, jamiyatning o'z-o'zini tashkil etuvchi va boshqaruvchi



idoralarining faoliyati to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishini talab etuvchi mexanizmlarni vujudga keltirish zarur.

O‘zbekiston fuqarolari millati, irqi, jinsi, kasb-kori, ijtimoiy kelib chiqishidan qat’iy nazar fuqaro sifatida qonun oldida huquqan teng va birdek mas’uliyatlidirlar.

Shuning uchun ham mayjud muammolarni bartaraf etishda fuqarolarning o‘z fuqarolik huquqlarini bilib olishlari va ular himoya qilishlari hamda burchlarini chuqur anglab yetishlari uchun ularni huquqiy jihatdan tarbiyalab borish dolzarb vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Bu jarayon fuqarolar uchun ma’naviy-axloqiy kamolot manbai bo‘lishi bilan birga, ularning bu boradagi mas’uliyatini yanada oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)**

“Ma’naviyat”ning mohiyati, predmeti, tushunchalari va rivojlanish qonuniyatlariga bag‘ishlanib respublikamiz ziyorilari o‘rtasida qizg‘in munozaralar olib borilmoqda. Bunga sabab ma’naviyatning ko‘p qirrali tushuncha ekanligidir. U inson faoliyatining barcha qirralarini, uning yaqqol ko‘zga tashlanuvchi zoxiriylari yashirin, ichki ruhiy – botiniy tomonlarini ham qamrab olganligidadir. Hozirgi kunda ham munozaralar davom etmoqda va matbuotda ushbu mavzuga bag‘ishlab ko‘plab maqola va mulohazalar e’lon qilinmoqda, kitoblar chop etilmoqda.

Ularda ma’naviyat, uning ma’no-mazmuni, hayotimizdagi o‘rnini va ahamiyati xaqida fikrlar bildirilmoqda. Lekin aksariyat hollarda ma’naviyat o‘zi nima, degan savolga aniq va lo‘nda javob topish qiyin. Unga har xil, ba’zan esa bir-biriga qarama qarshi, noaniq sayoz javob va fikrlar bildirishmoqda. To‘g‘ri, “Ma’naviyat” tushunchasiga ilmiy, falsafiy, adabiy, axloqiy yoki oddiy tilda ifodalanadigan ko‘plab ta’riflarni keltirish mumkin. Umuman, o‘zida juda chuqur va keng qamrovli ma’no-mazmunini mujassam etgan bu tushunchaga har qaysi muallif o‘zining falsafiy yondashuvi, siyosiy qarashlari va e’tiqodi, ongu tafakkuridan kelib chiqqan holda turlicha ta’rif va tavsiflar berib kelayotganliklarini ko‘ramiz. Unga ham bir tabiiy hol sifatida qaramoq lozim. Bu masala bo‘yicha ilmiy adabiyotlarda, kundalik matbuotda bir biridan farq qiladigan fikr-mulohazalarda, ta’riflarda har qaysi muallifning o‘ziga xos dunyoqarashi, mushohida tarzi o‘z ifodasini topgan. Shu



nuqtai nazardan qaralganda, keyingi yillarda mazkur mavzuda olimlarimiz tomonidan tayyorlangan ilmiy maqolalar, risolalar, o‘quv qo‘llanmalar, lug‘atlarda “Ma’naviyat” tushunchasi va uning tamoyillariga o‘ziga xos izoh va ta’riflar berib kelinmoqda. Bunga sabab “Ma’naviyat” tushunchasi keng ma’noda jamiyat hayotidagi g‘oyaviy, mafkuraviy, ma’rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarni o‘zida to‘la mujassam etgan ijtimoiy-ma’naviy hodisa ekanligidir.

Aslida ma’naviyat – insonni jamiki boshqa mavjudotlardan ajratib turadigan eng baquvvat ma’naviy-ruhiy omil hisoblanadi. Inson – tabiatning, barcha mavjudotning gultoji deyilganda uning ushbu xislati, ya’ni yuksak ma’naviyat egasi bo‘la olish imkoniyati nazarda tutiladi. Bu imkonni boshqa jonzotlarda ko‘rmaymiz.

Moddiy narsalar odamga jismoniy oziq va quvvat bersa, ma’naviyat unga ruhiy oziq va qudrat bag‘ishlaydi. Faqat moddiy jihatdan ta’minlanish bilan kifoyalanish – ongsiz va ruhsiz mahluqotlarga xos. Ma’naviyatga intilish esa ruh va ong egasi bo‘lmish odamzotgagina xos fazilatdir. Ma’naviyat odamning aqliy va ruhiy olami majmui kabi murakkab ijtimoiy hodisadir.

Ma’naviyat juda keng qamrovli tushuncha bo‘lganligi uchun ham, yuqorida ta’kidlaganimizdek, uni bir jumlada ifodalash nihoyatda mushkul. Ma’naviyat ko‘proq inson qalbiga, botiniy dunyosiga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Shu ma’noda ma’naviyat inson qalbidagi ilohiy bir nur sanaladiki, bu ilohiy nur hech bir jonzotda yo‘q. Ma’naviyat shunday sehrli tilsimki, uni tugal yechishga bashar qudrati yetmaydi. Shunday ekan, «ma’naviyat» tushunchasiga bir yo‘la mukammal ta’rif berish murakkab hisoblanadi.

Ana shuning uchun ham, O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish kuchli davlatdan, kuchli fuqarolik jamiyatga o‘tish konsepsiysi zamirida inson erkinliklarini fuqaro, xalq manfaatlariga mos holda bosqichma-bosqich yuzaga chiqarish asosiy vazifa sifatida belgilangan. Ma’lumki, qonunlarning har bir moddasida insonning muayyan yo‘nalishdagi erkinliklari beriladi. Lekin yodda tutmoq kerak-ki, bunday tartib, yo‘l-yo‘riq yoki imkoniyat faqat bitta fuqaroning erkinligini yuzaga chiqarish uchungina joriy etilgan emas. Balki bu huquqiy me’yor barcha uchun teng asosga ega. Hamonki shunday ekan, barcha ya’ni butun jamiyat



a'zolari ana shu me'yor asosida o'z erkinliklarini bir xil darajada amalga oshirishi shart [5, 84]. SHuningdek, bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining ma'naviy-axloqiy binosi mustahkam bo'lishi lozim. Bu esa, eng avvalo, fuqarolarni, ayniqsa, yoshlarni chuqur bilimli, teran fikrli, o'z o'tmishi durdonalaridan va ma'naviy-axloqiy qadriyatlaridan xabardor, vatanparvar, haqiqatparvar, fidoiy qilib tarbiyalashni taqazo etadi. Komil inson shaxsini tarbiyalash esa eng murakkab va qiyin jarayondir. Bu jarayonni amalga oshirish ular ongiga milliy qadriyatlarni singdirish maqsadga muvofiqdir. Demak, bugungi yosh avlod o'z tarixini, madaniyatini, milliy qadriyatlarni, tilini, dinini va urf-odatlarini mukammal bilsagina, mustaqillikning asl mohiyatini chuqurroq anglab etadilar.

### **Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)**

Fuqarolik jamiyati ham ana shu milliy qadriyatlarni asoslanib rivojlantirilishi bejiz emas. Zero, "Madomiki biz huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati qurayotgan ekanmiz, ma'naviyat sohasidagi XXI asrga mo'ljallangan harakat dasturimiz shundan kelib chiqmog'i darkor, ya'ni erkin fuqaro – ongli yashaydigan, mustaqil fikrga ega bo'lgan shaxs ma'naviyatini kamol toptishirish bizning bosh milliy g'oyamiz bo'lishi zarur"<sup>1</sup>.

Insonga yoshligidan singdirilgan madaniy-ma'naviy qarashlar, axloqiy qadriyatlarni, an'analar, diniy-ruhiy tuyg'ulardan iborat. Bu bo'g'inda u oilasi, qarindosh-urug'lari, mahallasi, millati, yurti bilan birligini, uning tarkibiy qismi ekanligini his etadi. Natijada, uning ongi va qalbida milliy g'urur, vatanparvarlik tuyg'usi shakllanadi. Bu jarayonda shaxsda haqiqiy fuqarolik pozitsiyasi shakllanadi.

Zotan, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek, har qanday islohotning eng muhim samarasi, avvalo, xalqning ma'naviy-ruhiy qarashlaridagi yangilanish jarayonlari, uning ongu tafakkurining yuksalishi, mamlakatda yuz berayotgan o'zgarishlar uning hayotiga, taqdiriga daxldor bo'lganligini chuqur his qilishi va shundan xulosa chiqarishi bilan belgilanadi. Ushbu so'zlardan qo'rini turibdiki, yoshlarning ijtimoiy siyosiy faoligini oshirish bugungi kundagi eng



dolzarb vazifalardan biridir. Shu maqsadda har birimiz ushbu vazifalarni amalga oshirilishida faol fuqarolik pozitsiyamizni ko‘rsatishimiz hamda yurtboshimizni biz yoshlarga qarata aytgan “Farzandlarimiz, yoshlarimiz bizning nafaqat ishonchimiz va kelajagimiz, yoshlarimiz bugungi va ertangi kunimizning xal kiluvchi kuchidir” [3] so‘zlarini doimo yodimizda saqlashimiz zarurdir.

Fuqarolik tuyg‘usi esa shaxsning “Avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan madaniy jarayonlar ahloqiy qadriyatlarning o‘tmish bilan keljakni uzviy aloqadorligini ta’minlab, tarixiy merosning nodir ne’matlarini o‘zgartirish asosida shakllanadi” [4,15]. Fuqarolik jamiyatining asosiy mezonlaridan biri bu fuqarolarning yuksak darajada ong va madaniyatga ega bo‘lishliklari hisoblanadi. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, fuqarolik jamiyatida faol, tashabbuskor, g‘ayratli, faqat yaratuvchanlik, ijodkorlik ruhi va kayfiyati bilan yashovchi shaxslarga e’tibor va ehtiyoj katta bo‘ladi. Bunday yuksak intellektual salohiyat tafakkur erkinligining qay darajada shakllanishi bilan uzviy bog‘liq. Jamiyatning inson uchun yaratgan real iqtisodiy qulayliklari va imkoniyatlari, yuridik haq-huquqlari, qaror topgan axloqiy va ma’naviy muhit uning tafakkuri erkin, ilg‘or va yuksak ideallarni ko‘zlashi bilan uyg‘unlashmog‘i lozim.

### Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Tatqiqoqlarning ko‘rsatishicha, fuqarolarning ijtimoiy voqelikka yangicha, mustaqil va erkin tafakkur asosida yondashishi yuqori ko‘rsatkichga ayniqsa, ma’naviy-axloqiy sifatlariga ega bo‘lishi lozim. Ayni paytda, psixolog va sotsioglarning nuqtai nazaricha, yangi shakllanayotgan fuqarolik jamiyati rivoji ko‘p jihatdan shaxs ongi, xarakteri va dunyoqarashini korreksiyalab borishni talab etmoqda. Hozirga kelib, mamlakatimizda fuqarolik jamiyati, unga monand davlat boshqaruvi tizimini – demokratiyani qaror toptirish zarurati va mas’uliyati har bir fuqaroning yuksak ma’naviy-axloqiy salohiyatining, falsafiy tafakkur tarzini yanada shakllantirish vazifasini ko‘ndalang qilib qo‘ydi. Darhaqiqat, odamzot o‘z oldida turgan vazifalarni hal etishdan oldin hamma narsani aql tarozisiga qo‘ymog‘i, o‘zi tashlaydigan amaliy qadamlarning ehtimoliy natijalarini avvaldan taxmin qilmog‘i, nazarda tutmog‘i lozim. Fuqarolik madaniyatini yuksaltirishda ta’lim beqiyos o‘rin



tutadi. Bugungi kunda ham oldimizga qo‘ygan asosiy maqsad-fuqarolik jamiyatini barpo etish va uni takomillashtirish uchun Milliy dasturda ko‘zda tutilgan bilimli, ongli, tafakkuri ozod, zamonaviy dunyoqarashli, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq insonlarni tarbiyalashga yanada muhim e’tibor qaratish va bu masalalar ta’lim islohotlarining bosh vazifasi deb qabul qilib, uni amalga oshirishdan iborat. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun asosida yaratilgan va amalga oshirilayotgan yangi ta’lim modeli aynan ana shu maqsadga erishish yo‘lida o‘zining yangicha ta’lim va tarbiyaviy jarayonini shakllantirib bormoqda.

Unutmasligimiz kerakki, ma’rifat xalqimiz, millatimiz qonidadir. Bizda qadimdan “Ma’rifatli inson” tushunchasi ancha keng ma’noni anglatadi. An’anaviy sharqona qarashga ko‘ra, ma’rifatlilik–faqat bilim va malaka emas, ayni paytda chuqur ma’naviyat va go‘zal ahloq degani hamdir. Xalqimiz bilimli, kamolotli inson deganida aynan shunday odamlarni ko‘z oldiga keltiradi.

Shuning uchun xam Kadrlar tayyorlash milliy modelimizning butun mohiyati milliy tariximiz va hayotimiz bilan bog‘lanib ketgan. SHu tariqa O‘zbekistonda bevosita o‘zimizga xos, o‘zimizga mos bo‘lgan takrorlanmas, buyuk tariximiz, an’analarimizga asoslangan va, shu bilan birga, hozirgi davr talablariga javob bera oladigan ma’naviy-axloqiy sifatlarga ega bo‘lgan yosh avlodni tarbiyashga qaratilgan Kadrlar tayyorlash milliy modeli yaratildi. Dasturimizning, modelimizning milliyligi ham aynan shulardan iboratdir.

### Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

1. Fuqarolik jamiyat asoslari shakllanayotgan Respublikamizda, yoshlarimizning faoliytni yuksaltirish, ularda millat, xalq va jamiyat oldidagi burch hamda mas’uliyatini yurakdan his qilish tuyg‘ularini kamol toptirish hamda ularning ongu shuurida mustaxkam hayotiy pozitsiyani, e’tiqod hamda maslakni shakllantirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.
2. Bugungi kunda ta’lim tizimining barcha bosqichlarida yoshlarning intellektual salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan dars soatlari, o‘quv kurslari (Oliy ta’lim tizimida pedagogika-psixologiya bakalavriyat ta’lim yonalishi o‘quv rejasining



tanlov fanlar qismiga “Fuqarolik madaniyatini shakllantirish” nomli maxsus kurs kiritildi) yo‘lga qo‘yildi.

3. Mazkur sa'y-harakatlarni amalga oshirish, egallagan bilimlarini amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini mustahkamlash, qolaversa, bu borada faol fuqarolik madaniyatiga ega bo‘lgan yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, kelajakda natijalar keltiradi.
4. Zamonaviy ta’limning maqsadi har bir kishiga o‘z faoliyati uchun zarur bo‘lgan yangi bilimlarni olish va ularni jamiyat hayotiga tadbiq etish imkoniyatini yaratishdan iboratdir.
5. Tarbiyaviy (auditoridan tashqari ishlar)va o‘quv ishlari shaxsning intellektual ong va madaniyat darajasini inson, jamiyat, davlat manfaatlariga javob beradigan, bir so‘z bilan aytganda, ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk kishilarni voyaga yetkazishda eng muhim prinsiplarni anglab yetishga qadar oshirishga yo‘naltirilishi lozim.
6. Fuqarolik jamiyatini barpo qilishda fuqaro ongi, madaniyati, dahldorlik hissi va mas’uliyatini yuksaltirish hamda takomillashtirishni hozirgi talab darajasida yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyatga egadir. Albatta, yoshlar faoliyatida ushbu zaruriy masala o‘zining dolzarb jihatlari bilan ajralib turadi va samarali tarzda amalga oshirishni yo‘lga qo‘yishimiz lozim.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Мирзиёев Ш.М. “Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баходир” 2-том.Т.: «Ўзбекистон», 2018 й.
2. Каримов И.А. Ўзбекистонда демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари // Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т. 11. – Т.: Ўзбекистон, 2003. – 278 б.
3. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 15 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруза.
4. Губман Б.Л. Смысл истории. Очерки современных западных концепций. - М.: Наука, 1991. – 15 с.
5. Мусаев Ф. Эркинликнинг ҳуқуқий асоси // Тафаккур журнали. –Тошкент: 2002. - № 2. – 84 б.
6. lex.uz.